



## JAMIYAT IJTIMOY TUZILMASIDA O‘RTA SINFNING O‘RNI

**Bayboboeva Firuza Nabijonovna**

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, “Umumiqtisodiy fanlar” kafedrasii  
dotsenti i.f.d., dotsent*

**Email:** [f.bayboboeva@tsue.uz](mailto:f.bayboboeva@tsue.uz)

**DOI:** [https://doi.org/10.55439/EIT/vol14\\_iss1/777](https://doi.org/10.55439/EIT/vol14_iss1/777)

### **Annotatsiya**

Mazkur maqolada aholining daromadlar ierarxiyasida muhim o‘rin tutuvchi o‘rta sinfning shakllanishi, iqtisodiy va ijtimoiy mohiyati yoritib berilgan. Unda o‘rta sinfning bozor munosabatlari rivoji bilan uzviy bog‘liqligi, jamiyat ijtimoiy tuzilmasida kambag‘allar va boylar o‘rtasida barqarorlashtiruvchi omil sifatidagi roli tahlil qilinadi. Shuningdek, rivojlangan va o‘tish davridagi mamlakatlarda o‘rta sinfning shakllanish xususiyatlari, uning asosiy belgilari — daromadning jamg‘armaga aylanishi, moliyaviy va moddiy aktivlarning to‘planishi, mulkdorlik va kasbiy malaka bilan bog‘liqligi ochib beriladi. Maqolada o‘rta sinf vaklashuvi jamiyatda ijtimoiy barqarorlik va iqtisodiy taraqqiyotni ta‘minlovchi muhim omil ekanligi asoslab berilgan.

**Kalit so‘zlar:** o‘rta sinf, ijtimoiy mavqe, ijtimoiy amortizator, ijtimoiy barqarorlik, rivojlangan iqtisodiyot, mehnat unumdorligi.

### **Kirish**


Aholining daromadlar bo‘yicha ierarxiyasida o‘rta sinf alohida o‘rin tutadi. Uning shakllanishi bozor munosabatlarining rivojlanishiga qarab o‘zgarib boradi. Mazkur sinfning iqtisodiy holatidan uning ijtimoiy mavqei kelib chiqadi. Bu sinf jamiyatning ijtimoiy strukturasi bilan kambag‘allar bilan boylar orasida turadi. Bular, odatda o‘rta toifa yoki ijtimoiy amortizator vazifasini o‘taydi, deb aytish mumkin. Uning oraliq mavqei undan yuqorida va pastdagilarning to‘qnashuvi yo‘lidagi to‘siq vazifasini o‘taydi. Shu sababli bu sinf ko‘p hollarda ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlovchi toifa hisoblanadi.

O‘rta sinf bozor iqtisodiyoti yuksak rivojlangan mamlakatlarda ko‘pchilikni tashkil etadi. Biroq u o‘tish davri mamlakatlarida ham shakllana boshlaydi, amalda esa mulkdor toifa ko‘rinishida bo‘ladi.

Umuman olganda, o‘rta sinf rivojlangan iqtisodiyot mahsuli. Bu iqtisodiyot tovar va xizmatlarning mo‘l-ko‘lligi bilan ajralib turadi va aholining keng qatlamini to‘q yashashini ta‘minlaydi. Bu yuksak mehnat unumdorligi natijasidir. O‘rta sinf rivojlangan mamlakatlar XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab jadal shakllana boshladi. Unga xos belgilar daromadning joriy tirikchilik xarajatlaridan ortib qolishi va jamg‘arma hosil etishi, uning nafaqa fondlari, banklar, transkompaniyalari to‘planishi, moliyaviy aktiv-aksiya va obligatsiyalar shakliga kirishi, moddiylashib uy-joy, yer va boshqa ko‘chmas mulkka aylanishidir.

Turli mamlakatlarda o‘rta sinfning umumiy belgilari bo‘lsa-da, ular farqlanadi, chunki daromad miqdori va turmush tarzi bir xil emas. Ammo ko‘pchilik hollarda bu sinf vakillari

kichik korxonalar, unchalik katta bo'lmagan moliya aktivlarining egalari, malakali ishchilar va mutaxassislar, oliy va o'rta maxsus ma'lumotli kishilardan iborat. Uning vakili kapital sohibi bo'lishi shart emas, unda ishbilarmonlik bilan kasbiy malaka bo'lsa bas. Shu sababli bu sinf tarkibida yollanib ishlovchi ishchi va xizmatchilar ham oz emas.



**1-rasm. O'rta sinfni baholashning bir qator mezonlari**

Sinfni sinf qiluvchi narsa yuqorida keltirilgan belgilarning barqaror bo'lishidir. Bulardan tashqari, bu guruhning ahvolini uning sa'y-harakatlari, bozorda o'zini qanday tutishi ham belgilaydi.

O'tish davrida o'rta sinf tugal shakllanib ulgurmaydi, lekin uning alomatlari ba'zi bir aholi guruhlari paydo bo'la boshlaydi. Bu toifa tanho bo'lmaydi, boshqalar bilan yonmayon turadi. Transformatsiya bosqichida u turli-tuman toifalarni o'zida birlashtiradiki, bulardan birida sinfiy belgilar kuchli bo'lsa, boshqasida ayrim belgilar boshlang'ich shaklda bo'ladi, shu bois buni sinfning bo'lg'usi nomzodlari deb aytish mumkin. Belgilar har xil darajada va hatto o'zgargan shaklda ham bo'lib, ulardan biri bo'lsa, boshqasi bo'lmaydi.

Masalan, O'zbekistondagi tadbirkorlar orasida ma'lumoti yetarli bo'lmaganlari ham uchraydi, lekin ularning daromadi o'rta sinfga xos bo'ladi. Ayni paytda, ilmiy xodimlar orasida ma'lumoti g'oyat yuqorilari bor, lekin ular o'z daromadi jihatidan o'rta sinf vakillari bo'la olmaydilar. Demak, bilim darajasi, kasbni egallash va daromad topish o'rtasidagi aloqalar uzilib qolishi ham yuz beradi. Masalan, oliy ma'lumotli va hatto ilmiy unvonlarga ega mutaxassislar ishsizligi yoki o'z o'rnini topa olmaganligi uchun kam daromadli kishilar qatoriga kirib qolishi mumkin.

Amalda o'rta sinfning bir belgisi bo'lgani holda boshqasi bo'lmasligi ham kuzatiladi. Aytganimizdek, bilimi va turmush tarzi, o'zini tutishi jihatidan o'rta sinfga mansub kishilar daromadi va iste'moli jihatidan bu sinfdan tashqarida qolishlari ham kuzatiladi. Binobarin, o'tish davrida o'rta sinf belgilarining jamlanishi notekis kechadi. Bu jarayon

tugallanmaganidan oʻrta sinf belgilari turli toifalar oʻrtasida sochilgan boʻladi, bu sinfning oʻzidan koʻra unga nomzodlar koʻproq boʻladi, ular oʻrta sinf va boshqalar oraligʻida chegaradosh mavqeda boʻladilar. Oʻtish davriga xos boʻlgan oʻrta sinf belgilarini quyidagicha guruhlash mumkin:

- 1) Moddiy belgilar – daromadlar, isteʼmol miqdori, jamgʻarma miqdori, mulk bilan taʼminlanish darajasi;
- 2) Nomoddiy belgilar-bilim darajasi;
- 3) Kasbiy mahorat va mansabdorlik darajasi;
- 4) Oʻz ahvolini ishonch bilan his etish va iqtisodiy feʼl-atvorlik boʻlish;
- 5) Oʻz mavqeini oʻzi saqlab qolib, uning takrorlanishini taʼminlash yoki oʻzini oʻzi yarata bilish.

Bu belgilar turli qatlamlarda bir xil darajada jamlanmaydi. Bir yerda birinchi va ikkinchi belgilar boʻlsa, boshqa yerda uchinchi va toʻrtinchi belgilar, yana boshqa yerda hamma belgi jamlanadi. Oʻtish davrida 5 belgili qatlamlar oz boʻlsa, 1-2 belgilari koʻp boʻladi. Bu ham oʻtish davrida oʻrta sinfning shakllanishi davom etishini bildiradi.

Oʻrta sinf kishilarining funksiyalari ham bor, chunonchi u investitsion faollik, harakatchanlik, ijtimoiy barqarorlikni taʼminlashni bajaradi. Demak, oʻrta sinfga mansublik, birinchidan, maʼlum belgilarni mujassam etish boʻlsa, ikkinchidan, bir qator funksiyalarni bajarishni taqozo etadi.

Oʻtish davrida bu sinf belgilari gʻoyat tarqoq boʻlgani bois unga mansublikning bosh mezoni qilib jon boshiga hisoblangan yalpi daromadni olish mumkin. Bunda oʻrta sinf deb odatda yetarli miqdorda daromadi bor xonadonlarni kiritish mumkin.

Koʻchmas mulk oʻrta sinf belgisi deb qaralganda, asosiy turar joyidan tashqari boshqa yerda kvartirasi, oʻz uyi, dala hovlisi va avtomashina uchun garaji bor, 6 sotihdan ortiq (tomorqa emas) yerga egalik qiluvchi kishilarni olish mumkin.

Oʻzbekiston iqtisodiyoti yuksak darajaga koʻtarilish moʻljalini olgan. Shu bois mamlakatimizda oʻrta sinf vakillarini koʻpaytirishga alohida eʼtibor qaratilgan. Bu sinf, asosan, kichik biznes vakillaridan, yuksak malakali mutaxassislardan va nihoyat monopoliy daromad sohibi hisoblangan yollanib ishlovchilardan iborat.

Oʻrta sinfning soni va jamiyatdagi mavqei iqtisodiyotning oʻsishiga bogʻliq, shu sababli Oʻzbekistonda ham bu sinf safi kengayishiga moyillik katta. Bu jarayonga iqtisodiy oʻsishdan tashqari biznesning rivoji, mulkni xususiy lashtirish ham hissa qoʻshadi.

### **Adabiyotlar tahlili**

Iqtisodiy taʼlimotda tadbirkorlik va uning turli shakllari boʻyicha koʻpgina klassik iqtisodchilar va hozirgi zamon olimlari tadqiqotlar olib borganlar.

Tadbirkor - noaniq daromadga ega kishilar. Tavakkalchilik xatari uning bosh xususiyatidir (R.Kontilon. U bu atmani iqtisod faniga ham olib kirgan).

Tadbirkor – tijorat bilan shugʻullanib, foyda olish maqsadida tavakkalchilik qiluvchi mulk egasi (A.Smit).

Tadbirkor - iqtisodiy agent sifatida foyda olish uchun oʻz tajribasi va bilimini tavakkalchilik xataridan qoʻrqmay ishga soluvchi shaxs (J.B.Sey).

Tadbirkor foydani oʻsishini maqsad qilib qoʻyadigan, xatarga tayyor turadigan va kishilarni birlashtira oladigan tashabbuskor shaxs (V.Zamberg).

Tadbirkor - ishlab chiqarish omillari uyg'unlashuvining yangi nisbatini izlovchi, iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi va novatorlik xususiyatlari yuqori darajada rivojlangan kishi (Y.Shumpeter).

Jamiyat taraqqiyoti bilan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning mohiyatiga nisbatan turli qarashlar va yondashuvlar shakllana bordi. Jumladan, I.A.Arhipov: “Biznes foyda olish uchun bo'lgan ishlab chiqarish, bandlik, tadbirkorlikdir”, deb hisoblagan.<sup>1</sup>

Iqtisodchi olimlardan R.Xizrich va M.Piterslar “tadbirkorlik bu qiymatga ega bo'lgan yangilik yaratish jarayoni, bu jarayonda vaqt va ish kuchi o'zlashtiriladi, o'ziga moliyaviy, ma'naviy, ijtimoiy javobgarlikni qabul qiluvchi shaxsiy manfaatni qanoatlantirishga va ma'lum daromad olishga olib keladi”, deb hisoblaydilar.<sup>2</sup>

Shuningdek, iqtisodchi olimlar “tadbirkor” tushunchasini quyidagicha ta'riflaydilar: “Tadbirkor (mulkdor) o'zining tashabbuskorligini mehnat va kapital resurslarni tovar va xizmatlarni ishlab chiqarishga umumlashtirgan holda ish yuritishni foydali bo'lishini va'da qiladi. U tadbirkorlik faoliyatini yuritish bilan bog'liq bo'lgan qiyin vazifalarni bajarish uchun qarorlar qabul qiladi”.<sup>3</sup>

G'arbiy Yevropa olimlaridan S.Rozenblat, B.Bonningtenv va B.Nidislarning “Biznes konsepsiyasi” kitobida “biznes jamiyat ehtiyojlarini qondiruvchi tizim” deb qaralgan.<sup>4</sup>

Yuqoridagi yondashuvlardan ko'rinib turibdiki, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyati o'zining ishlab chiqarish va iqtisodiy xususiyatlari bo'yicha ko'p qirralidir

### **Natijalar**

Tahlil jarayonida taqqoslash, tizimli tahlil usullaridan foydalanilgan. Kuzatuv metodi orqali tadbirkorlikning va o'rta sinf holati baholangan va abstrakt-mantiqiy fikrlash orqali tegishli xulosalar shakllantirilgan.

### **Muhokama**

Faqat yuqori ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlikka erishib faoliyat yuritayotgan xususiy tadbirkorlik sub'ektlarigina mamlakatlar va mintaqalar doirasida iqtisodiy o'sishga va bandlikni ta'minlashga o'z hissalarini qo'sha oladilar.

Tadbirkorlik mulkiy munosabatlar doirasida yuz beradi. Mulkchilik turli-tuman bo'lganidan tadbirkorlik ham bir xil emas. Uni xususiy faoliyat bilan cheklab bo'lmaydi. Xususiy tadbirkorlik bilan bir qatorda jamoa, individual-oilaviy, davlat, aralash (qo'shma) tadbirkorliklar ham mavjud.

Tadbirkorlik turli mulk qorishmasiga tayanishi mumkin. Masalan, aksioner jamiyat doirasidagi tadbirkorlikda, xususan, jamoa, davlat va xorijiy kapital qatnashishi mumkin. Tadbirkorlik rivojlangan jamiyatda mulk egalari ko'payganidan mol-mulkni talon-taroj qilgandan ko'ra, uni avaylash va ko'paytirish iqtisodiy jihatdan hamma uchun ma'qul bo'ladi.

Endi tadbirkorlikning muhim belgilari yoki amal qilish prinsiplari bilan tanishamiz. Demak, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik:

1. Mulkiy munosabatlarning ishtirokchisi bo'lish, ishlab chiqarish omillarining barchasiga yoki ba'zi biriga va yaratilgan tovarlarga egalik qilish.

<sup>1</sup> И.А.Архипов. Экономический словарь.-М.: Проспект,2001.-С.47.

<sup>2</sup> Р.Хизрич, М.Питерс. Предпринимательство.-М.,1991.-С.26

<sup>3</sup> М.А.Сажина, Г.Г.Чибриков. Основы экономической теории.-М.: Экономика,1995.-с.83

<sup>4</sup> Рыночная экономика в 2-х томах.-М.:СОИТЕКС,1999.-С.125

2. Iqtisodiy erkinlik, xo‘jalik faoliyati turini tanlash, uni resurslar bilan ta‘minlash, oldi-sotdi ishlarini yuritish, ishlab chiqarishni boshqarishda erkinlik.

3. Iqtisodiy xatti-harakatlar uchun mas‘uliyatni o‘z zimmasiga olish, ish natijasiga javob berish, tavakkal qilib ish yurita olish, iqtisodiy xatarli ishga qo‘l urish.

4. Foyda olishga intilish, foydaga erishish chora-tadbirlarini ko‘rish, olingan foydani o‘z bilganicha qonuniy ishlatish.

5. Tijorat siriga ega bo‘lish, biznesga oid va o‘zgalarga oshkor etilmaydigan ma‘lumotlarni sir tutish.

6. Raqobat kurashida qatnashish, bozorda amal qiluvchi qoidalarga rioya etgan holda halol raqobatda qatnashib, uning g‘irrom, yovvoyi usullaridan voz kechish.

7. Halollik bilan ish yuritish, qalloblik, g‘irromlik va aldanchilikka moyil bo‘lmaslik. Obro‘ (imij)ga ega bo‘lish, boshqalarga ishonish va o‘zgalar ishonchini qozonib, sha‘n-e‘tibor orttirish, firma nomini e‘zozlab, unga putur yetkazmaslik, firmani obro‘sizlantirmaslik, nafsni jilovlash.<sup>5</sup>

### **Xulosalar**

Bugungi kunda tadbirkorlik deganda, uning o‘tmishdagi qo‘pol yovvoyi shakllari emas, balki zamonaviy turlari, ya‘ni madaniylashgan shakllari haqida gap ketadi. Hozirgi zamon tadbirkori eng avval bozorni xaridorgir tovarga to‘ldira oladigan tovar ishlab chiqaruvchidir. U yangilikni joriy eta oladigan, ishlab chiqarish omillaridan oqilona foydalanib, iqtisodiy o‘shishni ta‘minlaydigan, o‘zining va o‘z jamiyatining boyligini oshira oladigan, kishilarning farovonligiga hissa qo‘sha oladigan bo‘lishi zarur.

Biz ushbu faoliyatning XXI asrda ijodiy faoliyatga aylanishini quyidagilarda ko‘rishimiz mumkin:

- iqtisodiy kelajagi va taqdiri tadbirkorning o‘z qo‘lida bo‘lishi;
- ishbilarmonlik faoliyati shaxsiy hayotning ajralmas qismiga aylanishi;
- o‘z ishi uslubini faol ish bilarmonlik tarziga singdirish;
- qisqa vaqt ichida farovonligini o‘z mehnati bilan ta‘minlay olish;
- ishbilarmonligi bilan el nazariga tushish;
- obro‘-e‘tiborli bo‘lish.

Yuqoridagilar madaniylashgan tadbirkorlikka xos madaniy munosabatlarni bildiradi. Tadbirkorlik faollashmasa, iqtisodiy o‘shish yuz bermasligini jahon tajribasi ko‘rsatdi.

Tadbirkorlik innovatsiya faoliyati tarziga kirsa, ya‘ni texnika va texnologiya yangiliklarini joriy etish bilan bog‘liq bo‘lsa, iqtisodiy o‘shish tezlashadi. Gap shundaki, innovatsiya fan-texnika yangiliklarini ishlab chiqarishda qo‘llash demakdir. Innovatsiya tufayli mehnat unumi o‘sadi, yangi tovarlar paydo bo‘ladi, bozor yanada to‘yinadi. Ammo innovatsion tadbirkorlik uchun ilmiy-texnikaviy ishlanmalar, ya‘ni patent, litsenziya, nou-xau bozori erkin va baynalmilal miqyosda amal qilishi shart, toki innovatsion kompaniyalar bozorda kerakli yangiliklarni topa olsinlar.

Tadbirkorlik o‘zining qonuniyligi jihatidan, ya‘ni qonunlarga naqadar mos yuritilishi jihatidan oshkora va yashirin tadbirkorlikka ajraladi.

Oshkora tadbirkorlik - ruxsat berilgan va davlat belgilagan qonun-qoidalarga binoan yuritiladigan tadbirkorlik bo‘lib, bu ochiq-oydin yuritiladi. Uning qanday faoliyat bilan

shug'ullanishidan jamiyat ahli xabardor bo'ladi. Bu iqtisodiyotning rasmiy, ya'ni oshkora sektori hisoblanadi. Bu yerda tovar va xizmatlarning asosiy qismi yaratiladi.

Yashirin tadbirkorlik - rasman ruxsat etilmagan, lekin amalda xufiyona tarzda va sir saqlangan holda yuritiladigan tadbirkorlik. Bu hamma yerda bor, lekin uning miqyosi har xil. Iqtisodiyotga qanchalik erkinlik berilsa, yashirin tadbirkorlik shunchalik kam bo'ladi. Bordi-yu erkinlik cheklangan bo'lib, soliq yuki og'ir bo'lsa, faoliyat turlarini man etish ko'p bo'lsa, shunchalik yashirin tadbirkorlikka kuch beriladi. O'zbekistonda yashirin ishlash kichik korxonalar, xonaki ishlab chiqarish, yakka tartibdagi tadbirkorlikka xos. Yashirin tadbirkorlik barcha mamlakatlar iqtisodiyotida mavjud. Bu, asosan, soliq to'lamaslik uchun ruxsat olmasdan biznes qilishdan iborat. Ko'pchilik olimlar yashirin tadbirkorlik ijtimoiy foydali bo'lganda bozor talabini qondirish uchun kishilar ehtiyojini qondiradigan tovarlar va xizmatlar yaratadi, deb ta'kidlaydilar. To'g'ri, bu ruxsatsiz bo'ladi, lekin iqtisodiyotga salmoqli hissa qo'shadi, deyдилar. Bizningcha, bunday faoliyat xufiyona iqtisodiyotning ko'rinishi bo'lib, uning davlat byudjetiga, Vatan taraqqiyotiga hech qanday nafi yo'q. Aksincha, u ayrim guruhiiy manfaatlariga xizmat qiladi. Oxir-oqibatda uyushgan jinoyatchilikni keltirib chiqaradi. Tadbirkorlik faoliyati qonun ustuvorligini ta'minlash talabidan kelib chiqishi kerak.

Bozor iqtisodiyoti va jahon iqtisodiy tizimida globallashuv jarayonlari jadallashgan sharoitida iqtisodiy xavfsizlik muammolarini ilmiy tadqiq etish kuchaydi. Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlar tajribasidan shu narsa ma'lum bo'lmoqdaki, jamiyat, davlat va shaxsning iqtisodiy manfaatlarini ta'minlash va muvozanatga keltirish, qashshoqlikka qarshi kurashish, iqtisodiy xavfsizlikni, shu jumladan, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda tadbirkorlik faoliyati muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, moliyaviy-iqtisodiy inqiroz va uning oqibatlariga qarshi kurashning samarali yo'li sifatida ham tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish orqali iqtisodiy va moliyaviy barqarorlikka erishish mumkinligi ayon bo'lmoqda. Mamlakatning iqtisodiy va siyosiy tayanchi hisoblanadigan tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning ilmiy-nazariy jihatlari klassiklar J.B.Sey, A.Smit, A.Marshall, Y.Shumpeter, J.Keyns, R.Xizrich, M.Piters, F.Xayek, M.Lapusta, K.Makkonnell, S.Bryu<sup>6</sup> va boshqalarning ilmiy ishlarida yoritib berilgan.

O'zbekistonlik olimlarning tadqiqotlarida kichik biznes va xususmy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish, kichik biznesni boshqarish, uni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning asoslari va ayrim jihatlari o'rganilgan. Xususan, iqtisodiyotni erkinlashtirishda kichik biznes va xususmy tadbirkorlikni rivojlantirish muammolari, kichik biznes va xususmy tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish masalalari, tadbirkorlik salohiyatini baholashning ekonometrik modellari, kichik biznes va xususmy tadbirkorlik ni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining nazariy - uslubiy jihatlari S. G'ulomov, S..B. Xodiev, Q. Muftaydinov, B. Navro'zzoda, H. Abulqosimov, A.Qulmatov, S. Salaev, X. Raxmonov, M. Abdurahmonova, F. Mamatov, N. Murodova, Sh. Qobilovlarning ilmiy ishlarida tadqiq etilgan holda, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyati iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning ilmiy-nazariy asoslarini takomillashtirish masalalari ularda o'z yechimini topmagan.

## **Adabiyotlar ro'yxati**

<sup>6</sup>Сэй Ж.Б. Трактаты политической экономии. – М.: Экономика. 1985. –55 с.

1. И.А.Архипов. Экономический словарь.-М.: Проспект,2001.-С.47.
2. Р.Хизрич, М.Питерс. Предпринимательство.-М.,1991.-С.26
3. М.А.Сажина, Г.Г.Чибриков. Основы экономической теории.-М.: Экономика,1995.-с.83
4. Рыночная экономика в 2-х томах.-М.:СОИТЕКС,1999.-С.125
5. А.Ўлмасов, А.В.Вахобов. Иқтисодиёт назарияси.-Т.: Шарқ, 2006- 142-143-б.
6. Сэй Ж.Б. Трактаты политической экономии. – М.: Экономика. 1985. –55 с.
7. Bayboboeva, F. (2023). KORXONANING IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING YO'NALISHLARI VA FUNKTSIONAL ELEMENTLARI. *Economics and Innovative Technologies*, 11(3), 262-268.